

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING ZAMONAVIY HAYOTDAGI TUTGAN O'RNI.

Ollaberganova Muyassar Davlatboy qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Urganch filiali “Kompyuter injineringi” fakulteti M11-23 guruh talabasi
olloberganovamuyassar@gmail.com

Rustamov Rahimbergan Hamrayevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti
Urganch filiali “Kompyuter injineringi” fakulteti 913-21 guruh talabasi
rahimbergan121@gmail.com

Saidmuratov Sulaymon Ollaberganovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti
Urganch filiali “Kompyuter injineringi” fakulteti 941-21 guruh talabasi
sulaymon.ollaberganovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning hozirgi hayotimizdagi o`rni va ahamiyatlilik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar. Raqamli iqtisodiyot, internet, tijorat, online savdo, kiber hujum, axborot texnologiyalar, raqamli texnologiyalar,

So`ngi vaqtlar juda ko`plab sohalar jadal ravishda rivojlanmoqda. Bu sohalar tibbiyat, ta’lim, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi sohalarni o`z ichiga olishi turgan gap. Lekin ular orasida “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi juda ko`p marta foydalanilayotgani va insonlar kundalik va ish faoliyatining ajralmas bir bo`lagi bo`layotgani ayni haqiqatdir. Ko`plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta`sir o`tkazgan va jamiyat hayotida bu iqtisodiyot muhim rol o`ynayapdi.

Raqamli iqtisodiyot atamasi birinchi marta Yaponiyada 1990-yillardagi tanazzul davrida yaponiyalik professor va tadqiqotchi iqtisodchi tomonidan tilga olingan. G`arbda bu atama 1995-yilda Don Tapskottning "Raqamli iqtisod:tarmoqli razvedka davrida va'da va xavf" kitobida paydo bo'lgan va kiritilgan. So`ngra raqamli iqtisodiyot tushunchasi nisbatan uzoq bo`lmagan vaqtida, 1995- yili Massachusetts

universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan bo`lib, olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o`tishda, qanday o`zgarishlar ro`y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot - sodda qilib aytganda, bu IT infratuzilmasi va kommunikatsiya tizimlariga asoslangan raqamli va hisoblash texnologiyalari (AKT) yordamida yuzaga keladigan barcha iqtisodiy jarayonlar uchun umumiy atamadir. Bu ma'lumotlarni elektron shaklda toplash, saqlash, qayta ishlash, qidirish, uzatish va taqdim etish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish, tarqatishva ulardan foydalanish bo`yicha faoliyat va tegishli mahsulotlar va xizmatlar majmui hisoblanadi.

Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, elektron to`lovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o`yinlari ko`riladi.

Raqamli iqtisodiyotni tijorat faoliyatida joriy etishning eng oddiy va aniq misollari orasida quyidagi kompaniyalar ko`pincha keltiriladi:

1. Uber – San-Fransiskodagi Amerika xalqaro jamoat kompaniyasi bo`lib, taksilar yoki shahsiy haydovchilarni topish, ularga qo`ng`iroq qilish va to`lov qilish hamda oziq ovqat yetkazib berish uchun xuddi shu nomdagilova.
2. Meta (2021-yil 28-oktabrgacha Facebook nomi bilan) – AQSHda joylashgan ko`p millatli xolding kompaniyasi bo`lib, dunyodagi eng mashxur ijtimoiy tarmoq hisoblanadi.
3. Alibaba – internet-tijorat sohasida faoliyat yurituvchi Xitoy jamoat kompaniyasi.

Ushbu kompaniyalarning faoliyat yuritishi bilan biz raqamli iqtisodiyot tushunchasi haqida qator bilimlarga ega bo`lishimiz mumkin. Ushbu kompaniyalar asosiy faoliyatlarini internetga bog`lagan holda olib borishadi va ularning asosiy daromadlari raqamli iqtisodiyotga asoslanadi.

Bu iqtisodiyot uning samaradorligini oshirish uchun Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) biznesning barcha sohalarida tarqalishi bilan qo`llab-quvvatlanadi. Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi korxonalar qanday tuzilganligi, iste'molchilar tovarlar va xizmatlarni qanday olishlari va davlatlar yangi tartibga solish muammolariga qanday moslashishi kerakligi haqidagi an'anaviy tushunchalarini o'zgartirmoqda. Ishning kelajagi, ayniqsa COVID-19 pandemiyasidan keyin korxonalarga masofaviy ishlash bizning kelajagimiz ekanini ko`rsatdi. Hozir ko`proq odamlar onlayn ishlamoqdava global iqtisodiyotga hissa

qo`shadigan onlayn faollikning oshishi bilan Internettizimlarini qo`llab-quvvatlovchi kompaniyalar ko`proq foyda keltirmoqda.

Raqamli iqtisodda barcha mijozlar (ham B2B, ham B2C) biznes bilan xohlagan vaqtida va ular uchun eng qulay tarzda muloqot qilishga intiladi. Bundantashqari, mijozlar doimiy, to`g`ridan-to`g`ri, kontektsual va shaxsiylashtirilgan tajribalar orqali brendlar bilan aloqa o`rnatishni xohlashadi.

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko`plab ijobiy imkoniyatlarni berishi mumkin. Hozirgi kunda insonlar raqamli texnologiyalar rivojlanishi orqali o`ziga kerakli xizmatlardan ancha tez va samarali foydalanmoqda. Internet yordamida o`ziga kerakli bo`lgan mahsulotlarni o`zlariga kerakli bo`lgan mahsulotlar arzon sotib olishi mumkin va imkoniyat ularga ancha moliyaviy daromadlarini tejash imkoniyatini beradi. Masalan biron bir kitobning elektron ko`rinishda sotib olish bizga, shu kitobni chop etilgan ko`rinishini sotib olishga qaraganda ancha arzonroqqa tushishi mumkin, yoki bo`lmasa oddiy iste'molchi o`zi ham tadbirkor bo`lishi, ham uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug`ullanishi mumkin.

Amerikalik mashxur iqtisodchi Tomas Mesenburg fikriga ko`ra, raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasining uchta asosiy komponentini ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Elektron biznes infratuzilmasi (apparat, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya, tarmoqlar, inson kapitali va boshqalar);
2. Elektron biznes (biznes qanday olib borilishi, tashkilot kompyuter vositachiligidagi tarmoqlar orqali amalga oshiradigan har qanday jarayon),
3. Elektron tijorat (tovarlarni o`tkazish, masalan, kitob onlayn sotilganda).

O`z navbatida har bir narsaning ijobiy tomonlari bo`lganidek bu sohaning ham salbiy tarflari bo`lishi mumkin. Ular kiber hujum xavfi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bilan bog`liq muommolar, "raqamli qullik" (millionlab insonlar ma'lumotlaridan keyinchalik ularni o`zlarini tutishini boshqarish uchun foydalaniш), ishsizlikni oshishi, axborot texnologiyalarini rivojlanishi va unitadbiq qilinishi ortidan bir qancha sohalar va kasblar yo'q bo'lib ketishi mumkin. Lekin

baribir, ushbu yangi iqtisodiyotda raqamli tarmoq va aloqa infratuzilmasi odamlar va tashkilotlar strategiyalarni ishlab chiqadigan, o`zaro hamkorlik qiladigan, muloqot qiladigan va ma'lumot izlaydigan global platformani ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence”/ Tapskott Don Toronto, Kanada.
2. “Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research”/ Erik Brynjolfsson, Brian Kahin, 2001.
3. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>
4. <https://www.zeluslugi.ru/info-czentr/it-glossary/chto-takoe-cifrovaya-ekonomika>
5. <https://wikipedia.org>